

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**FALSAFAGA KIRISH
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000– San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 220 000– Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi: 60220500 –Falsafa

TOSHKENT – 2025

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:




Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenovika kafedrasi mudiri:



Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i



Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi FK1104	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafaga kirish	72	108	180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda olam va unda insonning tutgan o'рни to'g'risidagi mantiqiy tizimga ega bo'lgan nazariy bilimlarni hamda ularni amaliyotda tatbiq etish konikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga tabiat, jamiyat va inson hayotini falsafiy anglashning mohiyatini, moddiy va ma'naviy hayotning o'zaro uyg'un holda rivojlanishini jamiyat barqarorligining muhim sharti ekanligini, XX-asrda yuzaga kelgan global muammolar, ularni hal etish imkoniyatlari va istiqbollari; tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining asosiy qonunlari va kategoriyalarini; mantiqiy tafakkur shakllari va qonunlarini; hayotning ma'nosi va axloqiy qadriyatlarini; olamni estetik idrok etishning asosiy kategoriyalari va tamoyillarini yoritib berish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi: Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leiden universiteti (ARWU 111) xorij tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Falsafa: predmeti, falsafiy bilim strukturasi va ijtimoiy funksiyalari</p> <p>Zamonaviy inson hayotida falsafiy masalalar. Dunyoqarash madaniy fenomen sifatida. Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Falsafiy dunyoqarashning predmeti. Falsafiy muammolarning o'ziga xosligi. Falsafaning markaziy masalasi bo'lgan insonning dunyoga munosabati «dunyo – inson» muammosining mazmuni. Asosiy falsafiy muammolar. Falsafiy bilimlar strukturasi. Falsafaning ilmlar tizimidagi o'рни va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Falsafaning funksiyalari. Falsafiy tafakkurning shaxs o'zligini anglash va kamolotga yetishishida ahamiyati. Falsafa va fan. Falsafa va iqtisod.</p>			

2-mavzu. Falsafaning tarixiy–sivilizasion xilma-xilligi. Sharq falsafasi

Qadimgi Turon, Bobil, Misr, Hindiston, Xitoyda ilk falsafiy tasavvurlar va ta’limotlarning paydo bo’lishi. “Avesto”dagi falsafiy fikrlar. Konfusiy va Laotszining falsafiy qarashlari. Asotiriy dunyoqarashdan falsafiy tafakkurga o’tish.

Ilk o’rta asrlarlarda Islom madaniyati va sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida ilm-fan va falsafaning o’rni. Islom falsafasining asosiy yo’nalishlari. Olamning yaxlit falsafiy manzarasini yaratishda dunyoviy va diniy ilmlarning uyg’unligi masalasi. Markaziy osiyolik mutufakkirlar Forobiy, Ibn Sino, Beruniy dunyoqarashlarida dunyoviy va diniy ilmlarning uyg’unligi.

Temuriylar sulolasi davrida ilm-fan va falsafiy fikr rivojlanishi. Mirzo Ulug’bek maktabi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodidagi irfoniy g’oyalarning insonparvarlik mohiyati.

Yangi va eng yangi davr falsafasi. Ma’rifatparvarlik va jadidchilikning rivojlanishi.

O’zbekistonda mustaqillikka erishgandan so’ng ma’naviy merosga munosabatning tubdan o’zgarishi va uning ijtimoiy ahamiyati. Zamonaviy falsafaning asosiy muammolari.

3- mavzu. Falsafaning tarixiy-sivilizasion xilma-xilligi. G’arb falsafasi

Qadimgi Yunonda falsafiy tafakkurning paydo bo’lishi. Olamning ibtidosi masalasi. A’fina maktabi: Suqrot, Platon, Aristotel. Ellin-rim maktabi.

Ilk o’rta asrlarlarda xristian falsafasining vujudga kelishi, uning sxolastik xarakteri. Nominalizm va realizm. Foma Akvinskiy ta’limoti. G’arb Uyg’unish davri madaniyati va falsafasi.

Yangi va eng yangi davr falsafasi. XVII-XVIII ma’rifatparvarlik falsafasining rivojlanishi. XX-XXI asrda Yevropa falsafasining asosiy oqimlari.

Sharq va G’arb falsafiy madaniyatidagi umumiy va o’ziga xos jihatlari. G’arbda falsafiy tafakkur teotsentrizmdan antropotsentrizmga va undan texnotsentrizmga qarab rivojlanganligi.

4-mavzu. Ontologiya – borliq haqidagi falsafiy ta’limot

Borliq falsafaning markaziy kategoriyasi sifatida. Borliq va yo’qlik dialektikasi. Borliqning shakllari: moddiy va g’oyaviy borliq, aktual va potensial borliq, real va virtual borliq. Tabiiy, ijtimoiy va ma’naviy borliq. Tabiatni falsafiy tushunishning mohiyati. Tirik va notirik tabiat tushunchasi. Falsafada ruh masalasi. Gilozoizm ta’limoti. Ibn Sino ta’limotida ruhlarning tasnifi. Ruh va insonning ichki dunyosi. Ruh va dunyoviy aql.

Falsafa va fanda hayotning kelib chiqishi va evolyusiyasi muammosi. Fanda tirik va notirik olamning moddiy, strukturaviy va funksional jihatdan farqlanishi.

Hujayra – hayotning moddiy asosi. Irsiy axborot va uning hujayrada amalga oshishi.

Materiya – olamning moddiy birligini aks ettiruvchi tushuncha sifatida. Materiyaning miqyosiy darajalari: mikroolam, makroolam va megaolam. Dunyoning yaxlitligi va rang barangligi.

Borliqning mavjudlik usuli va shakllari: harakat, makon va vaqt. Harakat manbai. Makon va vaqtning umumiy xossalari. Makon va vaqtning harakatdagi materiyaga bog'liqligi.

5-mavzu. Tabiat falsafasi

«Tabiat» tushunchasi. «Tabiat» tushunchasini an'anaviy ravishda keng va tor ma'noda talqin etilishi. Tabiiy sharoitlarning komponentlari: iqlim; joyning tuzilishi; yerning hosildorlik darajasi; o'simlik va hayvonlar; foydali qazilmalar va boshqa xom ashyo manbalarining mavjudligi; suv resurslari va boshqalar.

Tabiiylik va ijtimoiylik. Jamiyat hayotida tabiatning roli haqida Lao-szi, Konfutsiy, Demokrit, Gippokrat, Platon, Aristotel, Forobi, Ibn Sina, Ibn Xaldun, Jan Boden va boshqa faylasuflar fikrlari.

Geografik muhit. Geografik determinizm. Geografik determinizmning nazariy asosi. Sharl Monteskyening geografik determinizm borasidagi qarashlari. Geografik determinizm K.Ritter, F.Rattsel, G.T.Bokl, E. Reklyu, L.M. Mechnikov va boshqalarning talqinida.

«Birinci tabiat» va «ikkinchi tabiat». Tabiiylik va ijtimoiylik. Noosfera kontseptsiyasi..V.I.Vernadskiyning noosfera ta'limoti rivojiga qo'shgan xissasi.

6-mavzu. Falsafaning asosiy qonunlari va kategoriyalari

Qonun tushunchasining mazmuni. Falsafa qonunlari. Qarama-qarshiliklar birligi qonuni. Ayniyat va tafovut, ziddiyat. Ijtimoiy tizimlarda qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning ziddiyatga aylanish bosqichlari: garmoniya, disgarmoniya, konflikt. Islohotlar ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish va jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni. Sifat, xossa, miqdor va me'yor, sakrash tushunchalari va ularning mohiyati. Ijtimoiy jarayonlarning tadrijiy bosqichma-bosqich rivojlanishiga erishish jamiyat barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishi ekanligi.

Inkorni inkor qonuni. Inkorning tabiati. Metafizik inkor va dialektik inkor. Vorisiylik – eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'lishi.

Falsafa kategoriyalari. Kategoriya tushunchasi va uning tasnifi. Ontologik kategoriyalar. Alohidalik, xususiylik va umumiylik dialektikasi. Butun va bo'lak. Bo'laklar o'rtasidagi aloqaning xususiyati. Sistema, element, struktura. Sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari.

O‘zaro aloqadorlik kategoriyalari. Mohiyat va hodisa. Mazmun va shakl. Mazmun va shaklning dialektikasi. Formalizm. Sabab va oqibat. Sababning xususiyatlari. Sabablarning turlari. Bahona va sabab. Zaruriyat va tasodif. Imkoniyat va voqelik. Imkoniyatlarning turlari. Imkoniyat voqelikka aylanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarning tavsifi.

Ob‘ektiv olamni bilishda falsafa qonun va kategoriyalarning metodologik ahamiyati.

7-mavzu. Bilish falsafasi (gnoseologiya)

Bilish imkoniyatlari – gnoseologiya va epistemologiya muammosi sifatida. Optimizm, skeptisizm, agnostisizm, gnoseologik relyativizm.

Bilish faoliyat turi sifatida. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilish – dialektik jarayon. Bilish ijodiy jarayon sifatida. Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning asosiy shakllari.

Bilishda nazariya va amaliyot birligi. Amaliyot tushunchasi. Amaliyot haqiqat mezoni. Prakseologiya – amaliyot falsafasi.

8-mavzu. Ong falsafasi

Ong – borliqning ma‘naviy shakli. Ong – falsafaning sub‘ektiv reallikni ifodalovchi kategoriyasi; insonning ma‘naviy dunyosi; o‘zligini anglab yetishi; uning tashqi dunyoga munosabati sifatida. Ongning biologik va ijtimoiy omillari. Ong bosh miyaning funksiyasi. Inson ongining til bilan uzviy bog‘liqligi. Ong va ijtimoiy muhit.

Ongning sigmentlari: sezgi, idrok, emotsiya (hissiyot), iroda, xotira, shubha, ishonch, e‘tiqod, g‘oya, tafakkur. Tafakkur inson borlig‘ining o‘ziga xos tashqi faoliyatni tashkil qilish qobiliyatida namoyon bo‘lishi. Ongosti sohasi, uning tabiati va shakllari. Ongsizlik ijodning muhim manbai sifatida.

Ongning asosiy funksiyalari: refleksiv funksiya, gnoseologik funksiya, germenektiv funksiya, ijodiy funksiya, pragmatik funksiya.

9-mavzu. Falsafa – hozirgi zamon fanining metodologiyasi sifatida

Metodologiya tushunchasi va uning tasnifi. Universal (falsafiy), umumilmiy va xususiyilmiy metodlar. Dialektika va sinergetika universal – falsafiy metodologiya sifatida.

Dialektika – borliqning yalpi o‘zaro aloqadorligi va rivojlanishiga asoslanuvchi rivojlanish nazariyasi va bilishning umumiy metodologiyasi. Dialektika va sinergetika. Dialektik tafakkurning asosiy metodologik tamoyillari. Rivojlanishning sabablarini dialektikada – qarama-qarshi tomonlarning o‘zaro birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, inkorning inkori; sinergetikada – muvozanat, beqarorlik; evolyusiya va koevolyusiya tamoyillari asosida ko‘rilishi. Rivojlanish jarayonini dialektika uzluksizlikning uzilishi; «sakrashlar»; «spiral bo‘yicha», quyidan yuqoriga harakat (yechilish) shaklida; sinergetika imkoniyatdagi

tasodif; turfa imkoniyatlarning vujudga kelishi va ularni tanlash; determinantlashganlik tarzida talqin etilishi.

Sinergetika o'z-o'zini tashkil etish nazariyasi sifatida. Sinergetikada tartibsizlikdan tartiblanishga o'tish, chiziqsiz harakat g'oyasi. Bifurkatsiya, fluktuatsiyalar. O'zini o'zi tashkil etuvchi jarayonlarda dialektik ziddiyatlar: beqarorlik va barqarorlik, tartibsizlik va tartibli. Hodisalarning umumiy bog'langanligi va sinergetika. Barqarorlik va beqarorlik, rivojlanish va o'zgaruvchanlik tushunchalari. Ijtimoiy-madaniy jarayon kontekstida barqarorlik va beqarorlik muammosi.

10-mavzu. Falsafiy antropologiya

Falsafiy antropologiya – inson mohiyati to'g'risidagi fan. Inson biopsixosotsial mavjudot. Inson mohiyatining ko'p o'lchamliligi. Antropogenez va sotsiogenез. Postbiologizm va postsotsiologizm g'oyalarining biryoqlama xarakteri.

«Inson», «shaxs», «individ», «individuallik» tushunchalari va ularning o'zaro nisbati. «Individuallik» - shaxsni noyobligi va betakrorligining ifodasi.

Inson ehtiyojlari, manfaatlari va motivlari uni harakatlantiruvchi muhim omillar ekanligi. Shaxs kamoloti uchun moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning o'zaro uyg'un holda rivojlanishining muhimligi.

O'zlikni anglash – shaxs shakllanishining muhim xususiyati sifatida.

Hayotning ma'nosi tushunchasi. Inson tomonidan o'z hayoti ma'nosini anglab yetishining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati. Yoshlar tarbiyasida ularni hayot ma'nosini anglashga o'rgatishning zarurligi.

Sharq falsafasida «komil inson» tushunchasi. Komil insonni shakllantirish – jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili. Shaxsning shakllanishida oila, mahalla va ta'lim-tarbiya muassasalarining hamkorligi.

Shaxs o'z-o'zini tarbiyalovchi va o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizim sifatida. XXI asrda shaxs erkinligi va ijtimoiy mas'uliyati masalasi.

11-mavzu. Jamiyat falsafasi

Ijtimoiy falsafa – jamiyatni rivojlanuvchi yaxlit tizim sifatida o'rganuvchi falsafaning alohida sohasi. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi. Biosfera va noosfera tushunchalari. Texnik taraqqiyot va ekologik inqirozning vujudga kelishi.

Jamiyat – odamlar o'rtasida amal qiladigan ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy institutlar majmui sifatida. Ijtimoiy munosabatlar sub'yekti: shaxs, ijtimoiy guruhlar, etnos, millat.

Ijtimoiy ong va uning strukturasi. Ijtimoiy ong darajalari: kundalik va nazariy ong; ijtimoiy psixologiya va ideologiya. Ijtimoiy ong shakllari: axloqiy ong, estetik ong, diniy ong, siyosiy ong, huquqiy ong, falsafiy ong, fan.

Ijtimoiy hayotning belgilovchi sohalari: iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy sohalari. Ularning o'zaro aloqadorligi.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish – jamiyat rivojining tabiiy va zaruriy sharti. Jamiyatning iqtisodiy va sotsial taraqqiyotida mehnatning roli. Iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi.

Jamiyatning siyosiy tizimi tushunchasi. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Demokratik jamiyatda nodavlat tashkilotlarning tutgan o'rni.

Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida. Ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy va inqilobiy rivojlanish yo'llari.

Kishilarning mehnat faolligi – jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omili. Jamiyat taraqqiyotida tabiiy-geografik muhit, aholi, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning o'rni. Intellektual salohiyat va ijtimoiy rivojlanish. Yuksak ma'naviyat – ijtimoiy barqarorlik, totuvlik va farovonlik omili. Korrupsiya – jamiyat barqaror rivojlanishiga tahdid sifatida.

Kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga o'tish tamoyili.

12-mavzu. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat

Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar.

“Madaniyat” tushunchasi. Madaniyatning mohiyati va strukturasi. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Moddiy va ma'naviy hayotning o'zaro uyg'unligi jamiyat barqaror rivojlanishining muhim sharti. Ma'naviy tahdidlar va ularni bartaraf etish yo'llari. Madaniyatning ko'p funksiyaviyligi.

Madaniyatda milliylik. Til, an'ana, urf-odat, marosim, axloq-odob normalari kabi madaniy qadriyatlardagi milliy o'ziga xosliklar. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyat nisbati. Ma'naviy meros. Madaniyatning ijtimoiy-tarixiy tabiati. “Madaniyat” va “sivilizatsiya” tushunchalari, ularning o'zaro nisbati va aloqadorligi. Sivilizatsiya va texnika.

Jamiyat rivoji – tabiiy-tarixiy jarayon sifatida. Tarix falsafasida chiziqli va chiziqsiz rivojlanish g'oyasi. Formasion va sivilizasion yondashuvlar.

XXI-asr madaniyati – xususiyatlari, muammolari va istiqbollari. Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro bir-biriga ta'siri. Jahon sivilizatsiyasi tarixida Sharq madaniyatining o'rni va uni o'rganishning ahamiyati.

13-mavzu. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi

Aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy fan. Qadriyatlar shaxs va ijtimoiy ma'naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida. Qadriyatlarning tasnifi. Qadr va qadrsizlanish, ularning ijtimoiy xarakteri. O'tkinchi va abadiy qadriyatlar.

“Qadriyat” kategoriyasining mohiyati va namoyon bo'lish shakllari. Axloqiy madaniyat qadriyat sifatida. Shaxs, oila, jamiyat madaniyati va ularning o'zaro aloqadorligi.

14-mavzu. Mantiq

Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari haqida tushuncha. To'g'ri tafakkurlashning (fikrlashning) asosiy qonunlari: Ayniyat, Nozidlik, Uchinchisi istisno va Yetarli asos qonunlari.

Tushunchalarning shakllanishi va qo'llanishi. Tushunchaning mazmuni va hajmi. Tushunchaning mazmuni va hajmiga ko'ra turlari. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.

Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi. Hukm va gap. Oddiy va murakkab hukm. Oddiy hukmning turlari. Murakkab hukmlar va ularning turlari.

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Xulosa chiqarishning tuzilishi: asoslar, xulosa, asoslar va xulosalar o'rtasidagi mantiqiy aloqa. Xulosa chiqarish turlari: deduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish va analogiya.

Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Argumentlash (dalillash) va isbotlash tushunchasi. Isbotlashning tuzilishi: tezis, asoslar (argumentlar), demonstratsiya (isbotlash usuli). Isbotlash turlari: bevosita isbotlash va bilvosita isbotlash, rad etish. Asoslarni tanqid qilish va rad etish. Isbotlash usulini tanqidiy analiz qilish. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan xatolar. Paralogizm va sofizmlar. Mantiqiy paradoks.

15-mavzu. Axloq falsafasi (Etika)

Axloqning paydo bo'lishi. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy ahamiyati. XXI-asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. Inson hayotining ma'nosi, uning kamoloti va insoniyat oldidagi burchi, mas'uliyati.

Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me'yorlari. Muhabbat – axloqshunoslikning eng asosiy kategoriyasi. Muhabbat va nafrat. Ezgulik va yovuzlik. Burch va mas'uliyatsizlik; vijdon va vijdotsizlik; nomus va benomuslik; baxt va baxtsizlik; haqiqatparvarlik va yolg'onchilik.

Axloqiy tamoyillarning shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi. Vatanparvarlik; insonparvarlik; erkparvarlik; fidoiylilik; ziyolilik; mehnatsevarlik; tinchlikparvarlik tamoyillarining milliy va umumbashariy xarakteri. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.

Axloqiy me'yorlar: halollik va nopoklik; to'g'rilik va egrilik; rostgo'ylik va yolg'onchilik; insofilik va insofsizlik; vafo va xiyonat; sadoqat va sotqinlik; mas'uliyat va loqaydlik; oriyat va buzuqlik.

Nikoh, oila va davlatning axloqiy asoslari. Axloqiy madaniyat: muomala madaniyati, kasb etikasi, zamonaviy odob (etiket). Shaxs axloqiy kamolotida ta'lim va tarbiyaning o'rni. Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. Korruptsiyaga qarshi kurashish etikaviy muammo sifatida.

Sog'lom turmush tarzining barkamol avlod axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati.

16-mavzu. Nafosat falsafasi (Estetika)

“Estetika” - nafosatni o‘rganuvchi qadimiy fan. Estetik anglashning asosiy elementlari. Fahm, farosat, did o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik. Inson estetik ehtiyojini qondirishning zamonaviy manbalari. Estetik munosabatning o‘ziga xos xususiyatlari.

Estetikaning kategoriyalari, tamoyillari, qonuniyatlari. Nafosat – estetikaning metakategoriyasi. Go‘zallik – estetikaning markaziy kategoriyasi sifatida. Go‘zallik haqidagi tasavvurlarning o‘zgaruvchanligi. Go‘zallik va uning muqobillari: hunuklik, badbasharalik, beo‘xshovlik, nomutanosiblik. Ulug‘vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati. Ulug‘vorlikning tubanlik, xudbinlik, sotqinlik bilan ziddiyati. Fojeaviylik (tragediya) kategoriyasi. Forig‘lash - fojeaviy asarning xususiyati sifatida. Kulgililik kategoriyasi. Estetika kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi.

Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi. Tabiatni estetik idrok etishning an’anaviy va noan’anaviy usuli: tabiatni asl holda idrok etish, tabiatni badiiy obrazlarda ifodalash. Ekoestetikaning XXI-asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o‘rni. Mehnat – turmush estetikasining muhim omili.

Estetikaning zamonaviy muammolari.

17-mavzu. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi

Hozirgi davrning global muammolari. Jahon termoyadro urushini oldini olish va xalqaro xavfsizlikni kafolatlash – qolgan umumbashariy muammolarni hal etishning ustuvor yo‘nalishi sifatida. Insoniyatni halokatdan asrab qolish maqsadida global miqyosda xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi kurash, ekologik inqirozning oldini olish, demografik, iqtisodiy, tibbiy, ta’lim va boshqa muammolarning hal etilishi hayotiy zaruratga aylangani.

Ijtimoiy taraqqiyotning demografik omillari. «Demografik portlash» va «demografik inqiroz» tushunchalari. Inson hayoti uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarning taqchilligi global muammo sifatida. Etikaviy xarakterga ega bo‘lgan korrupsiya, genderga oid global muammolar. Globallashuv jarayonlari va qadriyatlar transformatsiyasi.

Global makonda texnika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi. Nanotexnologiyalar va biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri. Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar mutanosibligi.

Kelajak falsafiy muammo sifatida. Ijtimoiy bashorat – borliqni ilgari lanma in’ikos etishi. Ilmiy va noilmiy bashorat. Ijtimoiy bashoratning ilmiy mezonlari. Ilmiy prognozning asosiy usullari va shakllari. Ularning ilmiy bilishdagi o‘rni va ijtimoiy ahamiyati.

18-mavzu. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Korrupsiya tushunchasining mohiyati, tarixiy ildizlari va jamiyatda namoyon bo'lishiga oid qarashlar tasnifi. Korrupsiyaning sabablari. Korrupsiyaning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlari va uning axloqiy tarbiyaga salbiy ta'siri. Siyosiy, g'oyaviy va iqtisodiy korrupsiya – xavfsizlikka tahdid. Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari. Xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to'qnashuvi oqibati sifatida. O'zbekistonda korrupsiyaning turlari: favoritizm, nepotizm, kronizm va mahalliychilikni bartaraf etishda jamoatchilik nazorati va shaxsiy mas'uliyatning o'rni. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning yo'nalishlari va huquqiy asoslari. Korrupsion jinoyatlarning oldini olish shakllari va asosiy yo'nalishlari. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorligining maqsadlari va yo'nalishlari. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda OAVning o'rni va axloqiy ahamiyati.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Falsafa: predmeti, falsafiy bilim strukturasi va ijtimoiy funksiyalari.
2. Falsafaning tarixiy–sivilizasion xilma-xilligi. Sharq falsafasi.
3. Falsafaning tarixiy–sivilizasion xilma-xilligi. G'arb falsafasi.
4. Ontologiya – borliq haqidagi falsafiy ta'limot.
5. Tabiat falsafasi.
6. Falsafaning asosiy qonunlari va kategoriyalari.
7. Bilish falsafasi (gnoseologiya).
8. Ong falsafasi.
9. Falsafa – hozirgi zamon fanining metodologiyasi sifatida.
10. Falsafiy antropologiya.
11. Jamiyat falsafasi.
12. Tarix falsafasi, madaniyat va sivilizatsiya.
13. Akseologiya – qadriyatlar falsafasi.
14. Mantiq.
15. Axloq falsafasi (Etika).
16. Nafosat falsafasi (Estetika).
17. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi.
18. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar dars jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarni keyslar va organayzerlar orqali bajarish natijasida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini

oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash;

“Falsafaga kirish” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. “Sharq va G'arb falsafiy madaniyatining umumiy va o'ziga xos jihatlari” mavzusida taqdimot tayyorlash.

2. “Markaziy Osiyolik olim va mutafakkirlarlar Forobiy, Ibn Sino, Beruniyning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rni” mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil qilish.

3. “Olamning yaxlit falsafiy manzarasini yaratishda dunyoviy va diniy ilmlarning uyg'unligi” mavzusida debat tashkil etish.

4. “Bilishda nazariya va amaliyotning birligi” mavzusida taqdimot tayyorlash.

5. “Iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi” mavzusida videorolik tayyorlash.

6. “Inson – jamiyat – tabiat” tizimidagi nomuvofiqlik sabablari va uni bartaraf etish yo'llari” mavzusida esse yozish.

7. Ijtimoiy jarayonlarning tadrijiy bosqichma-bosqich rivojlanishiga erishish jamiyat barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishi.

8. “XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati” mavzusida videorolik tayyorlash.

9. “Ekoestetikaning XXI-asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'rni” mavzusida

videorolik tayyorlash.

10. Falsafaning mohiyatiga oid Sharq va G'arb mutafakkirlari ta'riflarini tasniflash

va ular bo'yicha prezentatsiya tayyorlash.

11. Senekaning "Lutsiliyga axloqiy xatlari" asarini o'qish va shu xatlar asosida talabalarining o'z hayoti va faoliyatiga baho berilgan esse tayyorlash.

12. Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Forobiyning "Siyosat falsafasi" va G'azzoliyning "Kimyoi saodat" asarlari asosida).

13. Noklassik ontologiyaning yo'nalishlari va mohiyati bo'yicha esse tayyorlash (M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asari asosida).

14. "Aristotel, Forobiy va Kant ontologiyasida kategoriyalarning tasnifi" mavzusida esse tayyorlash, (krossvord tayyorlash).

15. A.Fitratning "Oila asari"dagi oila qurish tartiblari va farzand tarbiyasiga oid g'oyalar bo'yicha esse tayyorlash.

16. A.Fitratning "Rahbari najot" risolasidagi "Baxtsiz odamlarning ikki toifasi"ga oid qarashlari bo'yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o'tkazish.

17. Avloniyning "Madaniyat to'lqinlari" maqolasi va E.To'fflerning "Uchinchi to'lqin" asarini qiyosiy tahlil etish, prezentatsiya tayyorlash.

18. "Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari" mavzusida esse tayyorlash (A.Toynbi, E.To'ffler asarlarining qiyosiy tahlili asosida).

19. "Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarning ahamiyati" mavzusida esse tayyorlash.

20. "Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar" mavzusida videorolik tayyorlash.

21. "Dunyo xalqlari miflari" haqida krossvord tayyorlash.

22. Jaloliddin Rumiyning "Ovchi va lochin" rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil etish (Ichindagi ichindadir asari asosida).

23. "Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari" mavzusida esse tayyorlash.

24. "Koevolutsiya va environmentalizm dialektikasi" mavzusida esse tayyorlash (O'zbekistonga qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar haqida ma'lumotlarni aniqlash) O'zbekiston tabiati mavzusida krossvord tayyorlash.

25. M.Behbudiyning "Yoshlarga murojaat" va "Muhtaram yoshlarga murojaat" maqolalarini tahlil etish va esse tayyorlash.

26. Makiavellining "Xukmdor" asari bo'yicha taqdimot tayyorlash.

27. G'azzoliyning "Tavba" asarini tahlil etish va talabalarining o'z faoliyatida mavjud odatlarni aniqlash va o'ziga baho beruvchi esse tayyorlash.

28. Ibn Tufayl va Ibn Sinoning "Xay ibn Yakzon o'g'li" risolasini qiyosiy tahlil etish va esse tayyorlash.

29. "Korrupsiyaning mohiyati va uning oqibatlari" mavzusida viktorina o'tkazish, video roliklar tanlovini tashkil etish.

30. "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari" mavzusida esse tayyorlash.

	<p>31. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari bo’yicha jamiyat boshqaruviga oid g’oyalarni tahlil etish va esse tayyorlash.</p> <p>32. S.Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to’qnashuvi” asarini o’qish va mohiyati bo’yicha esse tayyorlash.</p> <p>Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • darsliklar va o’quv qo’llanmalarning mavzularini o’rganib chiqish; • Internet ijtimoiy tarmoqlaridan mustaqil ta’lim doirasida samarali faoydalanish; • tarqatma material asosida alohida ma’ruza mavzularini o’zlashtirish; • maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash; • o’quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog’liq mavzularni chuqur o’rganish; • turli mavzularga doir adabiyotni o’qish; • ta’lim olishning faol va muammoli usullari qo’llangan o’quv mashqlarni bajarish; • taqdim etilayotgan mavzu bo’yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash; • mavzu bo’yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash; • ilmiy ma’ruza tayyorlash va taqdimot qilish.
3.	<p>V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p><i>“Falsafaga kirish” fanini o’zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • falsafaning asosiy muammolari, Sharq va G’arb falsafiy madaniyatidagi umumiy va o’ziga xos jihatlari, borliq falsafasi, bilish falsafasi, inson va jamiyat falsafasi, mantiqiy tafakkur shakllari va qonunlarini bilishning ahamiyati, olamga qadriyaviy munosabat, axloq falsafasi, nafosat falsafasi haqida <i>tasavvurga ega bo’lishi</i>; • tabiat, jamiyat va inson hayotini falsafiy anglashning mohiyatini, moddiy va ma’naviy hayotning o’zaro uyg’un holda rivojlanishini jamiyat barqarorligining muhim sharti ekanligini, XX-asrda yuzaga kelgan global muammolar, ularni hal etish imkoniyatlari va istiqbollarini; tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining asosiy qonunlari va kategoriyalarini; mantiqiy tafakkur shakllari va qonunlarini; hayotning ma’nosi va axloqiy qadriyatlarini; olamni estetik idrok etishning asosiy kategoriyalari va tamoyillarini <i>bilishi</i>; • inson borlig’ida o’zlikni anglashning ahamiyati yuzasidan nazariy va amaliy xulosalar chiqarish; yalpi o’zaro aloqadorlik va rivojlanishning umumiy qonunlarini hamda kategoriyalarini mutaxassislik sohasi doirasida, shuningdek ijtimoiy hayotda mavjud narsa va hodisalarni tadqiq etish jarayonida qo’llash; mantiqiy tafakkur qonunlari va shakllari; axloq va nafosat falsafasiga oid bilimlardan bilish amaliy faoliyatda foydalanish <i>ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	<ul style="list-style-type: none"> • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • organayzer (Klaster, Baliq skeleti, FSMU, Bumerang, Insert, BBXB)lar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Falsafa. Darslik.//Ahmedova M.A. umumiy tahriri ostida. – T.: O'FMJ, 2006. 2. Po'latova D.A., Fayzixo'jayeva D.E. Mantiq. O'quv qo'llanma. – T.: TDSHI, 2013. 3. Философия. Учебник. Под ред. А.Н.Чумакова. –Т.: Вузовский учебник. – М., 2018. (Электрон). 4. Иззетова Э.М. Философия. Практикум по изучению дисциплины. Учебное пособие. В двух частях.– Т.:ТДШУ, 2022. 5. Иззетова Э.М. Философия. Учебник. Часть первая. – Т.: ТДШУ, 2023. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. 7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. 8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. 9. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. 10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. 11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. 12. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// https://www.lex.uz

13. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)/<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>

14. Pulatova D. Falsafa. Falsafa asoslarining mantiqan-tizimlashgan amaliy kursi. O'quv qo'llanma. – T.:TDSHI, 2011.

15. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2013.

16. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi tarixi. Darslik.–T.:Effekt-D, 2021.

17. Pulatova D.,Ro'zmatova G., Jalolova O'.Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma.– T.: TDSHI. 2013.

18. Falsafa. Ensiklopedik lug'at. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2010.

19. Falsafa qomusiy lug'at. –T.: Sharq, 2004.

20. Пулатова Д.А.,Иззетова Э.М. Философия. Учебное пособие. – T.:ТДШИ, 2013.

21. Кармин А.С., Бернацкий Г.Г. Философия. Учебное пособие. – М., 2009. (Электрон).

22. Словарь философских терминов. – М.:Инфра-М, 2010. (Электрон).

23. Гетманова А.Д. Учебник логики. Учебник. –М. : Кнорус. 2011. (Электрон).

24. Никитина И.П. Эстетика. Учебник. – М. :Юрайт,2012. (Электрон).

25. Гусейнов А.А. Этика. Учебник. – М.: МГУ Юрайт, 2013. (Электрон).

26. Основы философии. Учебник. Издание 2-е, перераб./Под ред. М.А.Ахмедовой, В.С.Хана. – T.: Мехнат. 2004.

27. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O'FMJ, 2010.

28. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O'zbekiston, 2016.

29. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.

28. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: TMU, 2019.

29. Saifnazarov I., Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: Innovasion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi, 2021.

30. Madayeva Sh., Shermuhamedova N.va boshqalar Falsafa, o'quv qo'llanmasi. – Toshkent, 2019.

Scopusdan maqolalar

31. William D'Alessandro. Deontology and safe artificial intelligence// Philosophical Studies (2024) Scopus

<https://link.springer.com/article/10.1007/s11098-024-02174-y>

32. Alkemade, E., Deeg, N., Guillén Almiñana, C. et al. Global Epistemologies and Philosophies of Science: Global Dialogues and New Directions for Philosophy of Science. J Gen Philos Sci (2023).

	<p>33. Aklan, A.K. Smoke and Fire. Sign Inference in Greek and in Indian Epistemology. J Indian Philos (2024). https://doi.org/10.1007/s10781-024-09572-w</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>34. http://www.ziyonet.uz 35. http://www.gov.uz 36. www.library.ziyonet.uz 37. http://www.faylasuf.uz 38. http://booksss.ru/filosofiya/Slovar_Philosof.rar</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 20-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: Izzetova E.M. – TDSHU "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasidagi professori, f.f.d.; Ikramova I.R. – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasidagi dotsent, PhD.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Ramatov J.S. – TTYU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasidagi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor; Saydaliyeva N.Z. – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasidagi dotsent, f.f.n.</p>

Page 10